

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti**



САМАРСКИЙ
ПОЛИТЕХ
Самарский политехнический университет



**“SIRDARYO VILOYATINI INNOVATSION
HUDUDGA
AYLANTIRISH: MUAMMO, YECHIM VA
XALQARO TAJRIBA”**

**mavzusidagi xalqaro forsayt formatidagi
ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi**



**“TRANSFORMING SIRDARYA REGION INTO
INNOVATION REGION:
PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL
EXPERIENCE”**

**participant of the scientific-practical conference
in the format of the international website**

Guliston-2023

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti**

**“SIRDARYO VILOYATINI INNOVATION
REGION**

**TRANSFORMING: PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL
EXPERIENCE”**

**participant of the scientific-practical conference
in the format of the international website**



**“TRANSFORMING SIRDARYA REGION INTO
INNOVATION REGION:
PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL
EXPERIENCE”**

**participant of the scientific-practical conference
in the format of the international website**

TASHKILIY QO‘MITA RAISI:

**Xodjiyev Muksin Todjiyevich-t.f.d., prof, Guliston davlat universiteti
rektori,
tel: (+998 67) 225-42-75**

RAIS O‘RINBOSARI:

**Zikriyayev Zokir Mamirovich-GulDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektori, i.f.f.d., dots,
tel: (+998 67) 225-38-01**

MAS‘UL KOTIB

**Djurayev Mansur Egamberdiyevich-GulDU Ilmiy tadqiqotlar,
innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i,
g.f.f.d., dots,
tel: +998 99 314 13 23**

A‘ZOLARI:

**Sattorqulov Obidqul Turdiqulovich – GulDU Iqtisodiyot nazariyasi
kafedrasi mudiri, i.f.n., dots,
tel: +998 93 325 85 25**

**Toshtemirov Doniyor Eshboyevich – GulDU Pedagogika va psixologiya
kafedrasi mudiri, p.f.n., dots,
tel: +998 91 100 84 73**

**Uzoqov Akram Xikmatovich – GulDU Rus tili va adabiyoti kafedrasi
mudiri, f.f.f.d. PhD,
tel: +998 94 588 56 65**

**Pozilov Abdushoxid Abduvoidovich – GulDU Ingiliz tili va adabiyoti
kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dots,
tel: +998 94 162 35 35**

bergan va berayotgan voqea-hodisalar, tutumlar, kechinmalar orqali inson umrining asl mohiyati-yu, ma'nisiz hayotning nechog'lik ayanch tusga kirishi haqida so'z yuritsa, "Ozod" romanida bosh qahramon Ozodning muhabbat yo'lida boshidan kechirgan kechmishlari zamirida Vatan, oila, sadoqat, ruh va so'z erkinligi va yana ko'plab dolzarb masalalarni ifodalashga harakat qiladi. "Genetik" romanida ham muallif chin insoniy tuyg'ular sanalmish o'zlikni anglash, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va matonat kabi masalalarga murojaat etadi. E'tibor berib qarasak, Isajon Sulton barcha romanlarida inson ruhiyatining tub ildiziga kirib borishga, uni tahlil etishga urinadi va qaysidir ma'noda o'z maqsadiga erishadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ijodkor dunyoqarashi va badiiy tafakkur tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradigan tushunchalar bo'lib, hissiy va aqliy idrok orqali dunyoni bilish, ko'rish, ifodalash kabi jarayonlarni obrazlar vositasida amalga oshiradi. Zamonaviy o'zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri Isajon Sulton ham o'zining romanlarida ijodkor dunyoqarashi va badiiy tafakkurning individual uyg'unligini, shakl va mazmun, uslub, badiiylilik jihatidan o'ziga xoslik yarata olgan ijodkorlardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi(Mendan mengacha-2). Akademnashr. T.: 2018 yil.
2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991. – С. 23,93.
3. Sanobar To'laganova. Ijodkor shaxsiyati va badiiy qahramon muammosi(Abdulla Qodiriy ijodi misolida). Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T.: 2019 yil. 19-bet.
4. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi "Tohir And Zuhro". Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
5. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING "BAHROM VA GULANDOM" DOSTONIDA TASHBIH SAN'ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
6. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
7. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER'S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 70.
8. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(3), 49-53. Obida Opa, [11.09.2023 10:00]
9. Fayzullayeva, O. X. (2020). DIVERSITY IN WRITING UZBEK SONNETS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 627-633.
10. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 394-402.
11. Primov, A. A. (2021). "Poetics"-as A General Theoretical Education. *European Scholar Journal*, 2(6), 202-204.
12. Sariboeva, M. (2018). THE ROLE OF NAVOIS WORKS IN THE FORMATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED YOUNG GENERATION. *Bulletin of Gulistan State University*, 2018(1), 74-79.

QADIMGI TURKIY BUDDAVIYLIK SHE'RIYATIGA DOIR QARASHLAR TADQIQI

Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna

Tayanch doktorant

Guliston davlat universiteti, 120110, Sirdaryo viloyati Guliston shahri

E-mail: qarshiyeva1989@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada qadimgi turkiy buddaviylik she'riyatining genezisi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida so'z boradi. Buddaviylik she'riyatiga doir qarashlar va shu yo'nalishdagi ilmiy ishlar qiyosiy aspektda tadqiq qilinadi.

Kalit soʻzlar: Qadimgi turkiy adabiyot, turk-budda adabiyoti, buddaviylik sheʼriyati, obraz, qofiya, Oʻrxun-Enasoy yodnomalari.

Abstract: The article talks about the genesis, ideological and artistic features of ancient Turkish Buddhist poetry. Views on Buddhist poetry and scientific works in this direction are studied in a comparative aspect.

Key words: Ancient Turkish literature, Turkish-Buddhist literature, Buddhist poetry, imagery, rhyme, Orhun-Enasoy memoirs.

Аннотация: В статье говорится о генезисе, идейных и художественных особенностях древнетурецкой буддийской поэзии. В сравнительном аспекте изучаются взгляды на буддийскую поэзию и научные работы в этом направлении.

Ключевые слова: Древняя турецкая литература, турецко-буддийская литература, буддийская поэзия, образность, рифма, мемуары Орхуна-Энасыя.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyotning nafaqat umumturkologiyada, balki oʻzbek adabiyotshunosligida ham izchil va batafsil tadqiq etilishi, munosib bahosini olishi yuzasidan bir-qancha ishlar qilingan boʻlsa-da, bu yoʻnalishda aniq va puxta, tarmoqlangan tadqiqot ishlari yetarli emas. Oʻz yechimini – ilmiy-adabiy tadqiqini kutayotgan masalalar talaygina. Shunday ekan, qadimgi turkiy buddaviylik adabiyoti, xususan, buddaviylik sheʼrlari yuzasidan qimmatli fikrlar, adabiy-nazariy qarashlar taqdim eta olgan olimlar, tadqiqotchilarning faoliyatiga razm solish, ularning soha rivoji oldidagi xizmatlarini yetarlicha baholash bugunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mavzu doirasidagi tahlillar: Budda asarlari uzoq davr taraqqiy etib takomilga erishgan klassik yozma adabiy tilda, uning kitobiy uslubida yaratilgan. Buddizm tufayli turk olamiga qadimgi hind falsafasi va madaniyati taʼsir eta boshladi. Turkiy xalqlar madaniyati oʻzining eski anʼanalari va yangicha farazlari taʼsirida takomil bosqichiga koʻtarila boshladi.

“Turk-budda adabiyoti manbalari juda keng. Ular ichida turli adabiy janrlar, maqollar, fol kitoblari, qoʻshiqlar, yigʻi qoʻshiqlari, hikoya va hikoyatlar, sutralar, sheʼrlar, tavba duolari, magik-afsungarlik matnlari kabilarni koʻrishimiz mumkin”. [1; 3]

Toʻgʻri, qadimgi turkiylar davridagi adabiyotshunoslik fan sifatida rivoj topmagan boʻlsa-da, lekin uning elementlari mavjud edi. Aks holda, sheʼr yuzaga kelmagan boʻlard. Bu jarayon boshqa xalqlarning ilk davrdagi adabiyotida kuzatiladi. [2; 63] Qolaversa, bu tajriba umumturkologik tadqiqotlarda bor. [3;193-207] Shuningdek, I.V.Stebleva ham qadimgi turkiy yodgorliklarning badiiy tasvir vositalari poetikasiga alohida toʻxtalganda keyingi davr adabiyotshunosligi qonuniyatlarini tatbiq qilib, shu asosda baholaydi.[4; 162]

Budda oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot tavsifi Nasimxon Rahmonovning asarlari, maqolalari va ilmiy tadqiqot ishlarida mufassal berilgan. “Ruhiyatdagi nur murodi” monografiyasida buddaviylikning jahon va Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida tutgan oʻrni, Budda shaxsining sifatlati, gʻayritabiiy tugʻilishi va bu jarayon bilan bogʻliq turli xil afsonalarning paydo boʻlishi kabi adabiy-tarixiy maʼlumotlarga duch kelamiz.

V-VII asrlarda yaratilgan “Xuastuanift” asarining maʼlumot berishicha, qadimgi budda sheʼrlarining paydo boʻlishi Turk xoqonligi tashkil etilishidan ham avvalroqqa borib taqaladi. Buddaviylikning Turk xoqonligidagi tutgan oʻrni yaxshi emasligi Toʻnyuquqning “...budda gʻoyalari Turk xoqonligining harbiy harakatlariga toʻsqinlik qiladi” deya xoqonga bergan maslahatidan maʼlum boʻladi. Shu boisdan Oʻrxun-Enasoy yodnomalarida budda gʻoyalarini uchratmaymiz.

Olim Nasimxon Rahmonov yuqoridagi monografiyasida Budda oqimining taʼsiri kuchayishi bilan mazkur oqim sheʼrlarining targʻib qilinishi jadallashganligini aytadi. Tadqiqot ishida buddaviylik sheʼrlarining mazmuni, janriy xususiyati, gʻoʻyaviy-badiiy strukturasi, hajm va shakliy tomonlariga eʼtibor qaratadi. Bunday sheʼrlarning mualliflari sheʼr hoshiyalarida qayd etilgani, shoirlarning ismlariga diqqat qilinsa, ular nafaqat tarjima asarlari, balki, asl turkiyda yozilganligiga ham guvoh boʻlish mumkinligi haqida ilmiy maʼlumotlar beradi. Shuningdek, olim “Oʻn turli ezgulikning madhi” sheʼrini badiiy tahlilga tortadi. Ijtimoiy-diniy mavzuda yozilgan ushbu sheʼrning gʻoyaviy yoʻnalishi, pafosi va kompozitsion unsurlari izohlanadi. Shuningdek, mutaxassis soʻgʻd alifbosidagi har bir harfga bagʻishlangan sheʼrga ham diqqat qiladi. Sheʼrning hajmi haqida “84 misradan iborat boʻlib, 21 ta sakkizlikdan iborat. Sheʼr muallifi nomaʼlum”. [5; 88] B harfiga bagʻishlangan sakkizlik va uning mohiyati, uslubi, ifoda imkoniyati, yozilish maqsadi, S harfiga bagʻishlangan sakkizlikning mavzusi va

o‘zidan oldingi she‘r bilan qiyosiy-adabiy tafovutlari va umumiylik jihatlari haqida mulohazalar bildiradi.

Nasimxon Rahmonovning yuqoridagi kabi tahlillaridan har bir sakkizlik mustaqil she‘r ekanligi haqida aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Olim qadimgi turk budda she‘riyatining mavzu ko‘lamiga ham e‘tibor qaratib, nirvan va bo‘distavni madh qilishga bag‘ishlangan “Inonch” she‘rining obrazlariga tavsif beradi: “Nirvan – tafakkuri yuqori darajaga erishgan va Buddaga aylangan odamdir. Sansara kishanlaridan insonlar ozod bo‘lishlari uchun nirvanlar yordam beradilar. Sansara jonli mavjudotlarning azob chekishi va qayta tug‘ilishidir. Nirvan sansaraga qarama-qarshi qo‘yiladi. Nirvan oliy mavjudotdir”. [5; 90]

Yana bir buddaviylik ta‘sirida yozilgan she‘riy obraz – Mayto‘ra haqidagi olimning fikrlari Markaziy Osiyoda keng tarqalgan Mayto‘ra kul‘tiga bag‘ishlangan she‘rning mohiyatini chuqurroq anglashga ko‘maklashadi. Nasimxon Rahmonov qadimgi turk budda she‘riyatidagi asosiy yo‘nalishni, oqim ta‘sirida yaratilgan she‘rlarning butun ruhini tashkil etgan ichki ma‘naviy quvvatni tekshiradi. She‘rlarning mavzu mundarijasi, undagi sakkizlik yoki to‘rtliklarning mazmunan rang-barangligi singari jihatlar tadqiqotchi e‘tiboridan chetda qolmaydi.

Nasimxon Rahmonovning “O‘zbek adabiyoti tarixi” (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha) o‘quv-qo‘llanmasida mazkur oqimning mazmun-mohiyati, buddaviylikda “to‘rt oliy haqiqat”, Buddaning va‘dalari va ularning hayotiy ahamiyati va “Oltun yorug‘” asari haqida atroflicha mulohazalar to‘plangan bo‘lsa-da, buddaviylik she‘rlariga urg‘u berilmagan.

Kitobxonlarga buddaviylik ta‘sirida yaratilgan turkiy she‘riyatning shakllanishi to‘g‘risida ma‘lumot berib, ular idrokida bu she‘riyatning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilishda qadimgi turkiy adabiyot mutaxassisi M.Mamatqulov “Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi” o‘quv-qo‘llanmasi orqali qadimgi turkiy buddaviylik oqimining O‘rta Osiyo hududiga tarqalishi, uning natijasida shakllangan badiiy ijodning mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy ma‘lumotlar orqali tahlil qilinadi. Budda muhitida yaratilgan turkiycha she‘rlarning hajmi va ifoda uslubiga to‘xtalib, ular dinning qonun-qoidalari, buddaviylik g‘oyalarining targ‘ib qilinishiga xizmat qilganligini ta‘kidlaydi. Buddizmning ta‘sirida yashagan va ijod qilgan hamda nomlari bizgacha yetib kelgan shoirlar haqida ham ma‘lumot to‘playdi. “Ki-ki, Pratyaya-Shiri, Asig Tutung, Kul Tarqon, Chisuya Tutung, Qalim Keysi, Singku Seli Tutung kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin”. [7; 60]

“Sergaplik rangi” she‘rining 60 misradan tarkib topganligini, to‘rtliklar tizimidagi 15 banddan iboratligini qayd etib to‘rtlikni tahlil qiladi.

Olim buddaviylik muhitida yaratilgan she‘rlarni o‘ta talabchanlik va sinchkovlik bilan tekshiradi va ularga xos xususiyatlarni aniqlaydi: Ko‘pincha birinchi misraning oxiridagi so‘z uchinchi misrada yana qaytarilib, qofiya vazifasini o‘tashi mumkin. Radifning qofiya o‘rnida qo‘llanishi – qofiyasiz misralar oxiridagi takror so‘nggi guruhga kiruvchi to‘rtlikning asosiy belgisi hisoblanishi mumkin. Chunki uning har bir misrasida ohangdosh so‘zlar o‘rniga bir so‘z takrorlanib qo‘llanadi:

Yay-ki suvni kis-ki odte buz tiyur-ler,

Yana yay-in kis-ki buzni suv tip tiyur-ler .

Yangilduk-ta cin burkan-ni kongul tiyur-ler,

Yangilmaduk-ta kongul-ni ok burkan tiyur-ler.

Bunday holat, ya‘ni takror so‘zning qofiya vazifasini o‘tashi Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostonida ham uchrashini misollar orqali ko‘rsatib beradi:

Bu ochun rabot ul tushub ko‘chguluk,

Rabotqa tushukli tushar ko‘chguluk.

O‘ng arqish uzadi qo‘pup yo‘l tutub,

O‘ngi qo‘pmish arqish necha ko‘chguluk. [8; 53]

Zakiy tadqiqotchi radifning qofiya o‘rnida qo‘llanilishi adabiyotshunoslikda epifora deb atalishini nazariy jihatdan asoslaydi. Bu usulni Adib Ahmad ijodida ham uchratish mumkinligini aytadi. Qadimgi turkiy she‘rlarning badiiyati haqidagi qarashlari tahlil va talqinlari o‘ziga xos izchil bir tizimni tashkil etadi. Olim bu she‘riyat o‘zbek she‘riyatining chuqur ildizlari haqida tasavvur hosil qilish uchun asos bo‘lishini anglaydi va buddaviylik she‘riyatiga xos g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarning o‘zbek adabiyotiga ta‘sirini qiyosiy yo‘sinda o‘rgangan. Mazkur diniy oqim ta‘sirida yaratilgan

she'rlar o'zbek adabiyotining keyingi davrlarida tug'ilgan lirik asarlar uchun bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatganligi, zamona ruhini xalqchil she'riy shaklda ifodalashda va barmoq vaznining yetakchi she'riy vaznga aylanishida muhim o'rin tutganiga e'tibor qaratadi. Buddaviylik she'riyatining eng muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatib, "a) misra, bayt va bandlarda alliteratsiyaning yetakchiligi; b) takror so'zning qofiya vazifasini bajarishi; v) bandlararo qofiyalanishning mavjudligi" [6; 61] shakliyo'nalishi esa adabiy an'analarga muvofiqlikda deb belgilaydi.

Ayni vaqtda M.Mamatqulov buddaviylik she'rlarining poetikasi, shakl va mazmun masalasini tadqiq etar ekan, olim Nasimxon Rahmonovning shu yo'nalishdagi asarlariga, adabiy-ilmiy qarashlariga tayanganligini sezamiz. Shuningdek, she'riy namunalar tahlilida, avvalo, uning nazariy asoslari, badiiy takomili haqida batafsil va atroflicha mulohaza yuritadi. Qadimgi turkiy adabiyotda unchalik ham ko'zga tashlanavermaydigan o'ziga xos jihatlarni ko'rsatadi:

Alqu qamag' uch o'dki burqanlarqa,

Arish arig' nirvan to'zlug iduq nomqa.

Ayag'ulug' arya sangga quvrag'larqa,

Ayap kulep alqu o'dte inanurmen.

Ko'rinadiki, birinchi to'rtlikning uch misrasi o'zaro ketma-ket qofiya asosiga qurilib, to'rtinchi misra ochiq qolyapti. Ikkinchi to'rtlik misralari orasida esa qofiyalanish holati mavjud emas. Faqat to'rtinchi misradagi "tapinurmen" so'zi avvalgi bandning oxirgi misrasidagi "inanurmen" so'zi bilan ohangdoshlik hosil qilib, bandlararo qofiyalanishni yuzaga keltiryapti. Bu – bandlararo qofiyadoshlik butun she'r oxirigacha davom etadi va uni amalga oshirishda keyingi bandlarda "o'kunurnen", "o'girurmen", "ildinurmen" so'zlari xizmat qiladi. [8; 63]M.Mamatqulov shu kabi jihatlari bilan buddaviylik she'rlari xalq og'zaki ijodi she'rlariga hamohang ekanligini isbotlaydi.

"O'zbek xalq og'zaki ijodidagi qofiya tizimini maxsus o'rgangan Farmon Rayhonov bunday tadriji qofiyalanish usulini folklor xususiyatlaridan kelib chiqqan holda voqeaband qofiya deb atash lozimligini qayd etadi". [8; 64]Demak, buddaviylik she'rlarining yaratilishida mualliflar qadimgi turkiy og'zaki ijod namunalari yutuqlariga tayanganlar hamda folklor an'analarni she'riyatga singdirishga harakat qilganlar. Shu tariqa qadimgi turk budda she'riyati qadimiy turkiy ildizlarga ega ekanligini olim yana bir bor isbotlaydi.

Aytish mumkinki, qadimgi turkiy moniylik she'rlarining qofiyalanishida ma'lum bir qoida kuzatilmaydi. Bu holatni "alliteratsiya moniylik she'rlarining asosiy xususiyati" [9; 49] ekanligi bilan izohlash mumkin. Ma'lumki, qadimgi turkiyzaminda ma'lum bir diniy oqimning boshqa bir diniy oqim bilan sinkretik tarzda amalda bo'lganligi tarixiy-adabiy manbølarda anglashinib turadi. Shu jihatdan moniylik va buddaviylik oqimlarining bir-biriga ta'siri tabiiy holat. Zero, bu she'riy parchalarda o'z izlarini qoldirgan. buddaviylik she'rlaridagi bo'g'inlar miqdorining har xilligi, misralarning bir xil tovushlar bilan boshlanishi, tovushlarning takrori she'r ohangini ta'minlashdagi yetakchiligi kabilar moniylik she'rlariga ham xos xususiyat edi.

Shuningdek, adbiyotshunos olim N.Jo'raqo'ziyev qadimgi turkiy miflarni turk-budda adabiy manbalaridan izlaydi. "Qadimgi turk-budda poetik matnlarining ko'pchilik qismini duolar, budda ta'limoti qoidalari yoritilgan she'rlar tashkil qiladi". [1; 4] Qadimgi turkiy buddaviylik she'rlarining ichida turkiy xalqlar adabiy poetikasiga xos bo'lganlari borligini va ular o'ziga xos she'riy mukammallik kasb etishini ta'kidlaydi. Bular sirasida "O'n turli ezgulikning madhi" alqovi, "Donolik haqida", "Shirinsuxanlik haqida", "35 buddaga alqov", olqishlovchi she'rlar, budda Amitabxe, budda Maytreya bag'ishlovlar, "Bodxisat Samantabyuxandrega duolar to'plamlari ahamiyatlidir. Tadqiqotchi turk-budda she'riyati tarixiy-madaniy jarayonlardan hamda badiiy tafakkur sintezi mahsuli o'laroq yuzaga kelganligi, ular yozma yodgorliklarning genezesida alohida o'rin tutganligi hamda ma'naviy-madaniy hayotga kuchli ta'sir etganligi bialn diqqatga savovor ekanligi ilmiy-adabiy jihatdan isbot qilinadi. Buddaviy dini hukmron bo'lgan turkiyzaminda yaratilgan turk-budda she'rlarining mualliflarining ko'pchiligi noma'lum bo'lsa-da, ularning ba'zilar haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi N.Jo'raqo'ziyev. Xususan, "Shoir Prataning aytishicha, u ustoz Nagaradjunaning "Nirvikalpa" nomli she'rini tarjima qilgan". [10; 123] Turkiycha ma'nosi "Donishmandlik haqida" deb nomlanadi. Buddaviylik she'riyati an'anasiga ko'ra she'r Budda aqidalari, donishmandlik, Nirvanga yetishganlar haqida. She'rning tuzilishini kuzatgan tadqiqotchi uning qadimgi turkiy she'riyatga mansubligini, xalq qo'shiqlariga xos bandlardan iborat ekanligini

aniqlaydi. “Eng muhimi, bu davrdagi she’rlarda samoviy kult’lar alohida o’rin egallaydi” degan ilmiy xulosalarga keladi tadqiqotchi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar: Xulosa qilib aytish mumkinki, qadimgi turkiy buddaviylik she’rlarining kelib chiqishi, g’oyaviy-tematik xususiyatlari mashhur turkolog olim Nasimxon Rahmonov tomonidan tadqiq va talqin qilingan bo’lsa, bu davr she’riyatining adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan adabiy-badiiy qiymati nazariyaning janr, qofiya, radif, she’riy san’atlar va boshqa she’riy qonun-qoidalarini ilmiy talab bo’yicha izohlashlar M.Mamatqulov tomonidan amalga oshirilgan. N.Jo’raqo’ziyev esa qadimgi turk-budda she’rlaridagi kosmogonik obrazlarni tahlil qilishga erishgan. Shunday bo’lsa-da qadimgi turkiy buddaviylik she’riyatining hal qilinmagan masalalari yuzasida teranroq mulohaza yuritish, mazkur oqim she’riyatini qiyosiy-tarixiy aspektida yanada chuqurroq (monografik ko’rinishda) tadqiq qilish, tabiiy ravishda, ushbu bebaho xazinaning qadimgi turkiy adabiyotda egallagan mavqeyini oshirish, salmog’ini aniqlashni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo’raqo’ziyev N. Qadimgi turkiy mifologiyaning turk-budda adabiy manbalari maqolasi. 3-b.
2. Лихачев Д.С. Исследования по древнерусской литературе. -Л.: Наука, 1986. -С. 63.
3. Rahmonov N. Kultegin yodnomasi poetikasi.//O’lmas obidalar. –T.: Fan, 1989. –B. 193-207
4. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
5. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
6. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
7. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN’ATI. Filologik ta’limni takomillashtirish muammolari, 176.
8. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi “Tohir and Zuhra”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 548-556.
9. Mamatqulov, M. (2021). SAYYADI-GHAZAL WRITER. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 46-50.
10. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER’S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 70.
11. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(3), 49-53. Obida Opa, [11.09.2023 10:00]
12. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 394-402.

MUQIMIY ASARLARI MATNIY MUAMMOLARI

Rahmonov Vahob

GulDU filologiya fanlari nomzodi, dotsent

E-mail:rahmonov@gmail.com

Abstract: *In this article, the textual status of the works belonging to Muhammad Aminkhoja Muqimi is studied and investigated from the scientific point of view of textology. In the end, the original state of the artist’s works was restored.*

Key words: *attribution, verse, title, edition, publisher, authentic, dictionary, content, verse, artistic text.*

GLOBAL MUAMMO IQLIM O'ZGARISHIDA QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA O'ZGARISHLARNI O'RGANISHDA INNOVATSION ILMIY YONDASHUVLAR Raxmonov Ikrom Abdulkarimovich, Xudayberdiyeva Beg'am Nabibullayevna	1188
POETIK TURKUMLAR TADRIJI VA TAKOMILI Obidaxon Fayzullayeva	1190
TARIXIY TETRALOGIYADA OBRAZLAR YARATISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI Israilova Madina Yursun qizi, Qo'ylieva Gulchehra Nazorqulovna	1194
XURSHID DO'STMUHAMMADNING "BOZOR" ROMANIDA BADIY NUTQ VA USLUB Saymuratova Ijobat Tursunqulovna.....	1199
LUQMONI HAKIM SIYRATINING SHARQ-MUSULMON MANBALARIDAGI TALQINI Rahmatjon To'raqulov Zokir o'g'li	1203
SAYQALIYNING G'AZALNAVISLIK MAHORATI Muzaffar Mamatqulov Rahmonqulovich, Rahmonqulova Kamola Muzaffar qizi	1207
O'ZBEK ADABIYOTIDA HAJVCHILIKNING SHAKLLANISHI Oqbo'tayev Elbek Abdurazzoq o'g'li.....	1210
YOSHLAR ONGIGA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA INNOVATSION VA KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV Sariboyeva Maxsuda O'rinboyevna	1214
BADIY OBRAZ TALQINIDA BIOGRAFIK METODNING O'RNI To'rayeva Dilnoza Nematullaevna.....	1217
BADIY ADABIYOT VA FOLKLORIZM (Abdulla Qodiriy nasri misolida) Primov Abdulatif Abduraximovich.....	1222
ЁЗУВЧИНИНГ УСЛУБИЙ ИНДИВИДУАЛЛИГИ Тўйчиев Абдунаби Худойбердиевич	1225
RUBOIY VAZNINI ANIQLASHDA MUKAMMAL BADIY MATNINING O'RNI Oybek Normurodov Berdimurod o'g'li	1228
BADIY ASAR KONTEKSTIDA IJODKOR DUNYOQARASHI Babayeva Sevara Baxtiyor qizi	1232
QADIMGI TURKIY BUDDAVIYLIK SHE'RIYATIGA DOIR QARASHLAR TADQIQI Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna	1234
MUQIMIY ASARLARI MATNIY MUAMMOLARI Rahmonov Vahob	1238
XALQ MAQOLLARI LINGVOMADANIYATNING IFODACHISI SIFATIDA Axrorov Alisher Akbarovich	1242
O'ZBEK TILIDA SO'Z MA'NOSI TADQIQI (TILSHUNOS OLIM MIRAZIZ MIRTOJIYEV TALQINI MISOLIDA) O'razov Alisher Doniyorovich, Yo'ldosheva Zebaxon Zuhridin qizi	1245
AZIM HOJIYEVNING O'ZBEK TILIDA SO'Z YASALISHI MA'NOSIGA DOIR QARASHLARI Mamatqulov Azizbek.....	1247
TURKIY TILLARDA GRAMMATIK KATEGORIYA MASALASI Eliboev Islom Asqar o'g'li	1250
GULXANIYNING "ZARBULMASAL" ASARIDA PAREMIK JANRLARNI O'RGANISH Eshboyeva Fazilat	1252
TERMINOLOGIYADA DUBLETLIK VA SINONIMLIK MUNOSABATI Ermatov Ixtiyor	1255
BADIY ASAR TILI VA SHEVA MUNOSABATI Xudoyqulova Shoxistaxon Valiyevna	1258
HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI (YOKI HOZIRGI ADABIY O'ZBEK TILI) TUSHUNCHASI HAQIDA MULOHAZALAR Abdullayev J.	1262
BADIY ASARLAR TILIDA MAQOL VA IBORALARNING QO'LLANISHI Dexkanova L.A	1264
XX ASR 30-YILLAR NASRIY ASARLARIDA O'LCHOV BIRLIKLARINI BILDIRGAN ARXAIK VA TARIXIY SO'ZLAR Qambarov Ma'rifjon Abduhakimovich.....	1268